

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**“YANGI O‘ZBEKISTON TILSHUNOSLIGIDA
LINGVOKULTUROLOGIYA, PRAGMALINGVISTIKA,
NEYROPSIXOLINGVISTIKA VA LINGVOFOLKLORISTIKA
SOHALARINING DOLZARB MUAMMOLARI”**

(Filologiya fanlari doktori, professor R.R. Boboqalonov tavalludining 65 yilligiga bag' ishlanadi)

**XALQARO ILMIIY-NAZARIY ANJUMAN
MATERIALLAR TO‘PLAMI**

©Buxoro davlat universiteti
©Fransuz filologiyasi kafedrası

Buxoro-2024

<i>Akramov B. & Abdurahimova M.</i> Fransuz tilshunosli tijorat terminoleksiyasi strukturaviy-semantik mohiyati.....	679
<i>Akramov B.Q. & Raxmatov M.F.</i> Fransuz tilidagi tijorat terminologiyasining etimologik xususiyatlari.....	682
<i>Alimova M.</i> Contrastive analysis as the systematic study of non-related languages.....	686
<i>Bobokalonov O.O., Tilavov D.Y. & Temirov S.T.</i> Défis et stratégies des locutions françaises et leur traduction d'après l'ouvrage de Pierre Guiraud.....	691
<i>Bobokalonov O.O., Bozorova D.Sh. & Jumayeva Sh.S.</i> Didactique de l'enseignement des phytonymes dans différentes cultures.....	699
<i>Bobokalonov R.O.</i> Analyse lexico-sémantique des termes médicaux en français	712
<i>Farkhodova M.Y.</i> Cognitive analysis of the concept indefiniteness in the English and Uzbek languages.....	717
<i>Gofurova S. & Mambetagiya A.</i> Increasing students' intercultural communication competence through English..	722
<i>Hojiyeva G.S. & Izzatulloeva Z.K.</i> Xorijiy tillarni o'rganishda zamonaviy metodlar va interfaol o'yinlar roli....	727
<i>Hojiyeva G.S. & Xamdamov T.D.</i> Frazologik birliklar Gi de Mopassan asarlari tarjimasida tadqiqi misolida.....	732
<i>Joo Deok & Bobokalonov O.O.</i> Rôle des langues étrangères en Ouzbékistan, notamment pour le développement du tourisme à Boukhara.....	737
<i>Jo'rayeva M.M. & Karimova S.B.</i> Xorijiy tillarni o'rgatishda og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari.....	745
<i>Jo'rayeva M.M. & Abdullayeva S.I.</i> Fransuz gazeta sarlavhalarida leksik birliklar tarkibi va xususiyatlari.....	751
<i>Jumadullayeva G.F.</i> The role of educational cluster in teaching English.....	756
<i>Khabiroya Z.A.</i> Conducting ESP course through gamification.....	763
<i>Mamadjonov V.A.</i> La prise en compte des exigences de compétence européennes générales dans l'enseignement des langues étrangères.....	770
<i>Mbede Ambassa L.B.</i> Les nouvelles tendances méthodologiques dans l'enseignement des langues étrangères.....	774
<i>Messi T.J.</i> Développement des compétences langagières orales des apprenants ouzbeks: entre la compréhension et l'expression orales, cas spécifique de l'AFT.....	792
<i>Nasimova F.S. & Haydarova N.J.</i> Milliy oshxona tushunchasi nazariy jihatdan.....	792
<i>Nematullaeva M.R.</i> Importance of Virtual Reality in English language teaching.....	806
<i>Nuritdinova N. & Qalandarova R.</i> Chet tillarni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish....	810
<i>Radjabov R.R.</i> Simplification de l'orthographe française.....	814
<i>Radjabov R. & Ismatova G.</i> Fransuz badiiy asarlari o'zbek tili tarjimalarida evfemizmlar ifodalanishi.....	819
<i>Quziyev S.I.</i> Turizm talabalari uchun xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy shakllari.....	824
<i>Tairova M. & Toshtonboeva M.</i> «Portfolio de langues» lors de l'enseignement d'une langue étrangère.....	827
<i>Teshaeva D.</i> Enhancing CALL for EAP (English for Academic Purposes) and ESP Students.....	832
<i>To'yboeva Sh.R.</i> Tarjima strategiyalarini o'rganish muammolari.....	835
<i>Xayatova N.I.</i> Fransuz tilini o'qitishda disleksiya va disgrafyaning o'rni.....	840
<i>Shokirova M.N.</i> Dynamique des habitudes linguistiques: comprendre la langue et l'écriture comme un art.....	844



XORIJIY TILLARNI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA INTERFAOL O‘YINLAR ROLI



 Bukhara, Uzbekistan



Hojiyeva Gulchehra Salimovna

f.f.f.d. (PhD), dotsent

Fransuz filologiyasi kafedrası

Buxoro davlat universiteti

✉ g.s.hojiyeva@buxdu.uz

 <https://orcid.org/0000-0001-8686-7614>

 <https://scholar.google.com/citations?hl=fr&user=LFhC4PMAAAAJ>



Izzatulloeva Zarina Kamol qizi

Filologiya va tillarni o‘qitish (fransuz)

ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Fransuz filologiyasi kafedrası

Xorijiy tillar fakulteti

Buxoro davlat universiteti

✉ izzatullayevazarina72@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson hayotida tilning ijtimoiy soha sifatida tutgan o‘rni va ahamiyati, mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rganishga qaratilayotgan muhim e‘tibor va bu boradagi islohotlarning izchilligi, xususan, fransuz tili darslarini samarali tashkil etishdagi interfaol ta‘lim metodlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Til, xorijiy til, ta‘lim islohotlari, zamonaviy metodlar, interfaol o‘yinlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение языка как социальной сферы в жизни человека, важное внимание, уделяемое изучению иностранных языков в нашей стране и последовательность реформ в этом направлении, в частности, интерактивных методов обучения в эффективной организации занятий по французскому языку.

Ключевые слова: Язык, иностранный язык, образовательные реформы, современные методы, интерактивные игры.

Abstract: This article discusses the role and importance of language as a social sphere in human life, the important attention paid to the study of foreign languages in our country and the consistency of reforms in this regard, in particular, interactive educational methods in the effective organization of French language classes.

Key words: Language, foreign language, educational reforms, modern methods, interactive games.

Kirish.

Olam va odam azal-azaldan bir-biri bilan chambarchas bog‘liq tushunchalar bo‘lib, bu olamda neki bor, yoki insonlar tomonidan yaratilgan, bularning bari vaqtlar o‘tib kelajak avlodga yetib boradi. Bu jarayonda til zamonlar osha, avlodlar osha asosiy ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ilk manbalar bizgacha toshga o‘yilgan rasm shaklida (O‘rxun-Enasoy bitiklari, Misr iyerogliflari) yetib kelgan bo‘lsa, fan va texnika o‘zining yuksak cho‘qqisiga erishgan XXI asrda til va u orqali fikrni ifodalashning minglab zamonaviy ko‘rinishlari vujudga keldi. Bunday global zamonda bunyod bo‘lish, rivojlanish va taraqqiy etishga urinar ekan, har bir xalq, har bir millat, har bir davlat eng avvalo, o‘z milliy tiliga ega bo‘lish, uni yaxshi bilish bilan birga, dunyo bilan barobar qadam tashlash uchun xorijiy tillarni ham mukammal bilishi, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni yaxshi yo‘lga qo‘yishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Mustaqil davlat sifatida dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan mamlakatimizda ham, qisqa 33 yil ichida qo‘shnichilik va davlatlararo munosabatlar samarali yo‘lga qo‘yilganligining asosiy sababi — respublikamizda chet tillarini o‘rganishning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligidir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta‘lim muassasalarida chet tillarni o‘qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish hamda ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlardagi faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 19-yanvardagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari [2] va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar olib borilayotgan izchil islohotlarning kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu asosda bugungi kunda «Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan, o‘z kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan

takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon taraqqiyoti yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish»[1]dek ulkan maqsadlar amalga oshirilmoqda.

Natijalar va muhokamalar.


Ta’lim tizimida dunyo tajribasidan kelib chiqib, har bir chet tili o‘qituvchisining dars jarayonida AKT vositalari bilan birga, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Davra suhbat”, “Rolli o‘yin”, “Bahs munozara”, “Muammoli vaziyat”, “Loyiha” singari zamonaviy metodlar vositasida “Bumerang”, “Tezkor savol-javob”, “Akvarium”, “Krossvord”, “Chutomos”, “Bingo”, “Coughing dictation”, “Baliq skleti” [3] kabi interfaol o‘yinlar bilan chet tili darslarini samarali tashkil etish, guruhning barcha a’zolarini darsga jalb qilish orqali ular ishtirokini ta’minlash, erishgan natijalarini e’tirof etish, yutuqlarini rag‘batlatirish, guruhda do‘stona muhit yaratishi dars sifatining garovidir.

Masalan, “Baliq skleti” (“Isikava” diagrammasi)ni olsak, unda dastlab, muammo tanlanib, guruh ikki va undan ortiq mayda guruhlarga bo‘linadi va ularning har biri muammoga o‘zicha yondashib, uning ko‘rinishlari va ularga mos misollar berish orqali fikr bildiradi.

Boshqacha aytganda, “Baliq skleti”ga muammoni qo‘yish va hal qilishning modeli sifatida bir qator muammolarni ta’riflash va yechib ko‘rishga imkon beradigan, quyidagi *strategiyalardan iborat metod deyish mumkin:*


1. Bir varaq oq qog‘ozda (vatman yoki A-3 varag‘i) baliq skeleti chiziladi (boshi, kemirchagi, qovurg‘alari).
2. Yuqoridagi «suyagiga» muammo ifodalanishi, pastidagiga esa, ushbu muammo mavjudligini (yoki uni hal qilish yo‘llari, o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga qarab) isbotlovchi faktlar yoziladi.
3. To‘ldirilgan sxemaning taqdimoti.

Ushbu metoddan tabiiy va aniq fanlarda, muammoli ta’lim berish uslubi sifatida foydalanish mumkin va mazkur sxema muammolarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning kompleks xususiyatlarini aks ettirishi bilan xarakterlanadi.



1-rasm

Bunda har bir guruh a’zosining shaxsiy fikri inobatga olinadi. O‘yin oxirida muammoning yechimi oydinlashtiriladi va bu guruhlarning “Baliq skleti” misolida aks ettiriladi.




2-rasm

Quyida mazkur o'yinni fransuz tili darsi misolida ko'rib o'tamiz (Bu borada **“Le rôle d'internet dans la vie des jeunes”** (“Internetning yoshlar ongiga ta'siri”) mavzusi asos qilib olindi):



3-rasm



4-rasm

Xulosa.

Ushbu o‘yin orqali guruhda quyidagi ko‘nikmalar shakllanishini kuzatish mumkin:

- ✓ berilgan mavzu yuzasidan muammoli vaziyat yaratish;
- ✓ muammoni yechish yo‘lida boshlang‘ich tushunchalarning paydo bo‘lishi;
- ✓ o‘rganuvchining shaxsiy fikrga ega bo‘lishi va uni o‘z misollarida ifodalashi;
- ✓ guruhda ishlash va boshqalar fikrini hurmat qilish ko‘nikmalarining shakllanishi;
- ✓ mavzuni chuqur tahlil etib, atroflicha o‘rganish natijasida dunyoqarashning rivojlanishi;
- ✓ muammoni hal etish yo‘llarini izlash va xulosa qilish;
- ✓ individual va guruhda ishlash orqali ma’lum yutuqqa erishish.

Bu kabi o‘yinlar talabalar dunyoqarashining kengayishi, fikrlash qobiliyatining o‘sishi hamda rivojlanishi va eng muhimi, chet tillarga bo‘lgan qiziqish va e’tiborning ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni./ “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – Toshkent, 1997-yil 29-avgust.
2. https://www.google.com/search?q=lex.uz&oq=lex.u&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUqBwgBEAAyjwIyBggAEEUYOTIHCAEQABiPatIBCDc0NjNqMGo3qAIAAsAIA&sourceid=chrome&ie=UTF-8
3. http://www.atlantida.uz/publ/boshqalar/ta_39_lim_tizimi/baliq_skeleti/39
4. Gulchehra Khojiyeva, & Zarina Izzatulloyeva. (2023). The role of interactive methods in teaching french as a "foreign language" in elementary classes (based on the topic "saisons" - "seasons of the year"). *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(12), 136–142.
5. Hojiyeva, Gulchehra. "САНЪАТ ТЕРМИНЛАРИНИ ЎРГАТИШДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 43.43 (2023).
6. Hojiyeva, Gulchehra. "МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ БОСҚИЧИДА МУСИҚА ТЕРМИНЛАРИНИНГ ФРАНЦУЗ ТИЛИДА ЎРГАТИЛИШИ." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 45.45 (2024).
7. Hojiyeva, Gulchehra. "L" UTILISATION DES METHODES INTERACTIVES DANS LA PRODUCTION ORALE." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 45.45 (2024).
8. Hojiyeva, Gulchehra. "ЧЕТ ТИЛЛАРНИ ЎРГАНИШДА ИНТЕРФАОЛ ЎЙИНЛАРНИНГ РОЛИ." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 45.45 (2024).
9. Hojiyeva, Gulchehra. "ЧЕТ ТИЛИ АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 45.45 (2024).
10. Hojiyeva, Gulchehra. "BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ХОРИҒИЙ ТИЛЛАРНИ О‘ҚИТИШНИНГ АНАМИЯТИ." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 45.45 (2024).
11. Hojiyeva, Gulchehra. "Linguovoculary Properties Of Art Terms (On The Example Of French And Uzbek Languages)." (2021).
12. Ostonovich, Bobokalonov Odilshoh, and Hojiyeva Gulchehra Salimovna. "FRENCH SHIFONEMAS IN THE ARTISTIC FIELDS."